ONA TILI,O‘QISH SAVODXONLIGI VA MATEMATIKA DARSLARINI INTEGRATSIYALASH ORQALI O‘QUVCHILARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O‘RGATISH METODIKASI

RASULOVA MALIKAXON ABDUMALIKJON QIZI
Ta'lim va nazariya (Boshlang'ich ta'lim)yo`nalishi Pedagog-tadqiqotchisi
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23067479

Annotatsiya: Mamlakatimizda ta’lim tizimini, xususan, umumiy o‘rta ta’limni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotganligi barchamizga ayon. Chunki davlatning kelajagi, ertangi taraqqiyoti bugun umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tahsil olayotgan yoshlar qo‘lida. O‘quvchi yoshlarni mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan, jamiyatda sodir bo‘layotgan vaziyatlarga o‘z munosabatini bildira oladigan, olgan nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llay oladigan shaxs qilib tarbiyalash barchamizning oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, integratsiyalash, kognitiv,savodxonlik, passiv, yozuv

Ma’lumki, inson shaxs sifatlarining o‘zgarishi, shakllanishi, rivojlanishi bevosita o‘qitish va o‘rgatish jarayonining samaradorligi bilan bog‘liq.Har bir metodik yangilik ham inson shaxsi sifatlarini rivojlantiradi. Tanqidiy fikrlash faol jarayon hisoblanib, bunda o‘quvchilarda ilmiy bilim olish bilan birga fikrlash jarayonida o‘ziga ishonch ortadi, o‘z fikri va g‘oyalarining qadrini tushunadi, o‘quv jarayonida faol ishtirok etadi, do‘stlari va o‘qituvchi bilan fikr almashishni o‘rganadi hamda mas’uliyatliligi oshib, o‘zgalar fikrini tinglay olish ko‘nikmasi shakllanadi.[1]

Integratsiyalash bu ma’lum bir soha doirasida boshqa fanlarni ham o‘rganib borish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Hozirgi kunda yurtimizdagi ta'lim muassalarida har bir o‘quv dastur o‘zaro ma'lum bir soha bilan o‘zaro integratsiyalashgan holda olib borilmoqda.Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarni bir vaqtning o‘zida bir nechta sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini yanada oshirib borishdan iborat.Nafaqat bu jarayonda o‘quvchilarni bilim va ko‘nikmalari shakllanadi ,balki ularni tanqidiy fikrlash doiralari ham rivojlanib boradi.O‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish bugungi kunning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.O‘quvchilarning, mantiqiy va tanqidiy fikrlashini kuchaytirishi — bu bevosita matematika fanining o‘qitilishini takomillashtirish, o‘quvchilarda tanqidiy ko‘nikma va malakani shakllantirishdan iborat. Oquvchilarimizni kelajakda ijtimoiy hayotga va ozgarib borayotgan dunyoga tayyorlashimizda albatta tanqidiy fikrlashning o`rni beqiyosdir.

Prezidentimiz shunday deganlar «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak». Yaqinda yangi o‘zbek intellektual avlodni tarbiyalashga ixtisoslashgan Prezident maktablariga imtihonlar bo‘lib o‘tdi. Yakuniy bosqichda o‘quvchilarni saralashda tanqidiy fikrlash muhim kriteriylaridan biri ekanligi aytilgan edi. Prezident maktablariga kirishda matematika va ingliz tilidan test, tanqidiy fikrlash va muammoni yechish bo‘yicha masalalar berilgan edi.


Juda ko‘p o‘quvchilar ushbu berilgan topshiriqlarni o‘zlarining qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda bajardilar.O‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi o‘qituvchining savollariga javob berishdan emas, balki savol va muammolardan boshlanadi. Insonga tanqidiy fikrlash kerak, bu unga insonlar orasida yashashga va ijtimoiylashishga yordam beradi. Demak, tanqidiy fikrlash alohida mahorat emas, balki bolaning rivojlanishi va tarbiyasi jarayonida asta-sekin shakllanadigan ko‘plab ko‘nikma va qobiliyatlar majmuasidir. Tanqidiy fikrlash sinfdagi bolalar passiv tinglovchi bo‘lishni to‘xtatganda, lekin haqiqiy

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

tadqiqotchilarga aylanganda shakllanadi. Ta'lim jarayoniga tanqidiy fikrlashni tizimli ravishda kiritish alohida fikrlash va kognitiv faoliyat uslubini shakllantiradi.[4]

Hozirgi yurtimizdagi umum ta'lim muassalardagi darsliklar o‘zaro intagratsiyalashgan holda olib borilmoqda. Buning uchun barcha darsliklar tubdan o‘zagartirildi va darslikda berilgan barcha topshiriqlarga alohida urg‘u berildi.Barcha tipshiriqlar o‘zaro integratsiyalashgan holda bajariladi bu hozirgi kundagi darsliklarning yutuqlaridan biri hisoblanadi.Darslar integratsiyalash bilan birga o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga ham o‘rgatmoqda .Masalan:3-sinf 2 -qism darsligida berilgan quyidagi mashqni tahlil qilamiz.


1.Berilgan jadvaldan foydalanib yashiringan so‘zlarni aniqlang.Maqolni aniqlang va o‘qing.



Mana yuqoridagi bir mashq orqali o‘zaro uchta fan integratsiyalashgan holda berilgan ular quyidagilar matematika,ona-tili,o‘qish savodxonligi .Ushbu mashqda masalan:turli xildagi shakllar berilgan o‘quvchi topshiriqni bajarish jarayonida turli xildagi shakllarning nomlanishini ham o‘rganib ketadi va matematika darsida o‘rgangan bilimlarni qo‘llay oladi.Bundan tashqari,o‘quvchi raqamlar bilan ham birga ishlaydi yozuvda sonlarni vertikal va gorizontal holatda harakatlantirishni o‘rganadi.[2]

Bundan tashqari,o‘quvchilar harflar bilan ishlaydi va ularning yozuv va o‘qish malakasini oshiradi.

2.She’rda notog‘ri qo‘llangan so‘zlarni toping.



© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

3.Rasmdagi g‘ayriodatiy narsalarni toping va izohlang.



4.Har bir qatordagi so‘zlarni o‘qing. O‘ylab ko‘rib, berilgan 5ta so‘zdan ma’nosi to‘g‘ri kelmaydigan ortiqcha so‘zni toping va tagiga chizing

Boshlang‘ich sinflarda ona tili mashg‘ulotlarini shu tarzdagi o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashga doir mashqlar bilan rivojlantirish mumkin.

a)kesma, b) kvadrat, d) to‘g‘rito‘rtburchak, e) uchburchak, f) romb

a)tulki, b) quyon, d) bo‘ri, e) baliq, f) ayiq

a) kitob, b) piyola, d) ruchka, e) daftar, f) qalam

a) Aziz, b) Bilol, d) Said, e) Saida, f) Nodir

a) olma, b) banan, d) kartoshka, e) behi, f) shaftoli

ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan o‘quv topshiriqlari yordamida tashkil etish, ularning egallagan bilim, ko‘nikmalarini izchil tizimga solish imkonini beradi, o‘quv jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi va uni samaradorligini ta’minlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, tanqidiy fikrlash ham,ijodiy fikrlash ham, tafakkur mahsuli.Ammo bir-birini takrorlamas jihatlari bor. Ijodiy fikrlash o‘z xususiyatiga ko‘ra, cheksizlikka asoslangan.Tasavvur olamining aniqlikka yoki mavhumlikka yo‘g‘rilishi dunyoqarashning qay darajada kengligiga bog‘liq. Hozirgi kunda o'quvchilarni dunyoqarashlarini kengaytirish va ularni shaxsiy fikriga ega bo'lgan holda tarbiyalash lozim.Bu boshlang'ich ta'lim pedagoglarining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xalqaro ochiq jamiyati institutining «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari» dasturi. -T.,2002
2. Umarova M, Sh.Hakimova. O‘qish darslari (3-sinf uchun). –T.:Cho‘lpon, 2008. 123–126 b
3. G’ulomova X., 3.Yo‘ldosheva Sh., Shermatova U. 4-sinfda ona tili darslari. –T.: O‘qituvchi
4. Zagashev I. O., Zair-Bek S. I. Tanqidiy fikrlash: rivojlanish texnologiyasi. -Sankt-Peterburg: "Alyans" Delta "nashriyot uyi, 2003.-284 b.
5. Azimova I va boshqalar. Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. –T.: Respublika ta’lim markazi, 2021
6. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. –T.: “O‘qituvchi”, 1996.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.